

## OCCULTISM AND OCCULT SCIENCES

Ibraimov Temurbek Quanishbay uli

Master's student of UzMU

**Abstract:** Man has always loved, marveled at, and aspired to the truth of mystical phenomena and the supernatural. Even modern science recognizes the existence of phenomena that have no scientific or logical explanation. The knowledge implied is not theology or metaphysics, but occultism and occult sciences. So what is occultism?

## OKKULTIZM VA OKKULT FANLAR

Ibraimov Temurbek Quanishbay uli

UzMU magistratura talabasi

Inson har doim mistik hodisalar va g'ayritabiiy narsalarni yaxshi ko'rgan, hayratlangan va haqiqatga intilgan. Ilmiy yoki mantiqiy izohga ege bo'lmagan hodisalarning mavjudligini hattoki zamonaviy ilm fan ham tan oladi. Nazarda tutilgan bilimlar teologiya yoki metafizika emas, balki okkultizm va okkult fanlar hisoblanadi. Demak, okkultizm nima?

Fan falsafasi va zamonaviy ilim fan okkultizmga quydagicha ta'rif beradi. Okkultizm deb – amaliy tastig'iga ega bo'lmagan tabiat va ijtimoiy hayotda mavjud narsa va hodisalarga aytiladi. Okkultizmning lug'aviy manosi kelsak lotinchadan “occultus” - “yashirin” degan manoni anglatib, yashirin va noma'lum kuchlarga taalluqli, sirli ilmlar va san'atning umumiy nomi. Okkultizmning yonalishlariga okkultura falsafasi, alkimyo, astrologiya, sehr, teurgiya, ruhshunoslik, oneyrokritizm, nekromantiya va boshqalar kiradi. Ilmiy yo'nalish sifatida avvalo insonni, shu bilan birga kosmik va tabiatdagi hodisalarni organadi<sup>1</sup>.

Birinchi marta “philosophia occulta” (maxfiy falsafa) atamasi XVI asrda Nettesgeymlik Agrippa tomonidan qo'llanilgan. “Okkultura fanlari” atamasi esa fransuz ma'rifatparvari Eliphas Levi tomonidan keng amalyotga kiritilgan. 1884 yilga kelib Jozef Peladan “okkultizm” deganda - barcha “yashirin fanlarni” nazarda tutuvchi umumiy atama sifatida qo'llangan.

Okkultizm - bu “yashirin bilim”, aksincha “ilm” deb nomlangan “ochiq bilim” dan farqli o'laroq, bu “insonning yashirin qobiliyatlari” va “tabiatning ko'rinmas kuchlari” haqidagi ta'limotdir. Oldinlari ezoterizm sinonimi sifatida ishlatilgan bo'lsa, aslida okkultizm nisbatan mazmuni jihatdan kengroq tushuncha. Afsonaviy qahramonlardan biri Germes Trismegistusdan keyin ba'zan germetizm deb ataladi. Bu degani inglizcha –“marosim”, sehrgarlik amaliyotini, maxfiy bilimlarini anglatadi. Zamonaviy ilm-fan okkult ta'limotlarning aksariyatini «g'ayritabiiy e'tiqod» deb tasniflaydi.

Tarixiga to'xtaladigan bo'lsak, etimologik jihatdan “yashirin” so'zi lotinchada “occultus” yani “yashirin”, “sir”, bu «yashirin narsani bilish» ni anglatadi. Garchi “philosophia occulta” (lotincha “maxfiy falsafa”) va “sciences occultes” (fransuzcha “okkultura fanlari”) iboralari XVI asrdan beri ma'lum bo'lgan va qo'llanilgan bo'lsa, bu atamaning eng qadimgi ishlatilishi fransuz tilida uchraydi. “Ioccultisme” atamasi 1842 yilda Jan-Baptist Richard de Randonvillening «Dictionnaire des mots nouveaux» («Yangi so'zlar lug'ati») jurnalida chop etilgan maqolasida keltiriladi. Xanegraffning ta'kidlashicha, ushbu bosqichda bu atama xristian ezoterizmi bilan bog'liq bo'lgan. Keyinchalik fransuz sehrgari Eliphas Levi ushbu iborani o'zining “Marosim sehrlari” haqidagi kitobida ishlatgan. Birinchi marta 1856 yilda nashr etilgan «Dogme et rituel de la haute magie» va keyinchalik ilmiy va sehrgarlikka oid barcha keyingi adabiyotlarga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. 1853 yilda mason yozuvchisi Jan-Mari Ragon o'zining “Maçonnerie occulte” (fransuzcha «Sehrlil masonlik») asarida «yashirinlik» atamasini ishlatgan, va uni uyg'onish davridan beri «yashirin ilmlar» yoki «yashirin falsafa» dep nomlashkan. Aynan Eliphas Levi tomonidan «okkultizm» atamasi

<sup>1</sup>Qarang: Pierre A. Riffard, Dictionnaire de Iesterisme Paris, 1993, p. 243

ishlatilishi tufayli u keng tarqalib, hamma joyda qo'llanila boshlanadi. A. Favring fikriga ko'ra «Eliphas Levi Evropa va Birlashgan Qirollikdagi ezoterizmning asosiy vakili edi»<sup>2</sup>.

XX-asr ilmiy hamjamiyat vakillari «okkultura» atamasini turli yo'llar bilan ishlatishgan. Masalan, nemis faylasufi Teodor V. Adorno «Okkultga qarshi tezislari» da ushbu atamani irratsionalizmning umumiy sinonimi sifatida ishlatgan. Boshqa bir muallif Robert Amadu 1950 yilda okkultizm atamasini ezoterizmning sinonimi sifatida ishlatgan, ammo keyinchalik ezoterizm tadqiqotchisi Marko Pasi tomonidan bu yondashuv «ortiqcha» deb hisoblangan. Amadodan farqli o'laroq, boshqa yozuvchilar «okkultizm» va «ezoterizm» ni o'zaro bog'liq bo'sa ham, alohida hodisalar deb hisoblashgan. 1970 yillarda sotsiolog Edvard Tiryakian okkultizmni amaliyotlar va usullar bilan bog'liq ravishda foydalanadi va ezoterikizmni ajratib qoyadi.

Yana bir bo'linishni an'anaviy din muallifi Rene Gyonon ishlatgan bo'lib, u ezoterizmni aksariyat dinlar negizida yotgan an'anaviy, ichki ta'limot deb hisoblaydi. Serj Xutin va Lyuk Benua kabi ba'zi keyingi mualliflar ushbu so'larni Genon asarlari orqali izohlab foydalangan. Biroq, Xanegraff ta'kidlaganidek, Genon tomonidan ushbu atamalardan foydalanish uning an'anaviy qarashlariga asoslanadi va «ilmiy hamjamiyat tomonidan sog'lom fikr deb tan olinmaydi»<sup>3</sup>.

Okkultizmning butun tarixi davomida «okkultura» atamasi turli yo'lar bilan ishlatilgan. Hozirgi zamonda «okkultizm» atamasidan foydalanish odatda XIX asrda rivojlangan ezoterizm shakllariga va ularning XX asrda paydo bo'gan qismlariga nisbatan qo'laniladi. Bundan tashqari, majoziy ma'noda, Fransiyada XIX asrda rivojlangan ezoterizm shakllarini tavsiflash uchun, ayniqsa, neomartinistik talimotidan foydalanish mumkin. Eliphas Levidan boshlab yashirin oqim, okkultizm rivojlanishida ishtirok etgan boshqa fransuz ezoteristlari tomonidan qo'lab-quvvatlandi. Masalan Papus, Stanislas de Guayta, Jozef Peladan, Osvald Virt va XX asrda yashagan - Jan Briko va Robert Ambelain shular jumlasidandir<sup>4</sup>.

Okkultizm - bu sirli ta'limotlar va ruhiy olamga kirib borish, boshqa dunyo kuchlarini bilish va ularni o'zlashtirish istagini bildiruvchi kuchlar. Odam tabiat va kosmosda sirli, g'ayritabiiy kuchlar ochilishi, kashf etilishi mumkin deb ishonadi. Okkultizm bu kuchlarni o'zlashtirishni va shu bilan er yuzida yanada mukammal hayotga erishishni talab qiladi. Ammo okkultizmida inson Xudoni chetlab o'tib, ruhiy kuchlarga o'tishga harakat qiladi. Shu nuqtai nazardan o'rta asrlarda g'arbda okkultizmning fan sifatida rivojlanishiga bir qansha to'siqlar bo'ldi. Okkult bilimlardan foydalanishni sherkov ommaviy nazoratga olib, deyarli uning har qaysi yonalishidan foydalanish qat'iy man etilgan. Shu singari sharqda ham diniy dunyoqarash okkult bilimlarni keskin qoralaydi. Lekin okkult fanlar o'z nomiga mantiqan mos ravishda, sirli foalyat yuritib kelgan.

Okkultizm keng manoda tabiat sirlari haqidagi jismoniy, ruhiy, aqliy va ma'naviy, germetik va ezoterik fanlar deb ataladi. G'arbning ezoterik an'alarining asosini tashkil etuvchi okkultizmning asosiy tarkibiy qismlarini gnostitsizm, alkimyo va sehrga oid germetik risolalar, neoplatonizm va kabbala deb atash mumkin. Ularning barchasi bizning eramizning I asrlarida Sharqiy O'rta yer dengizida paydo bo'lgan. Sharqda esa tasavvuf, sehr va yoga falsafasi nomlari bilan malum.

«Yashirin fanlar» g'oyasi XVI asrdan rivojlana boshladi. Bu atama odatda uchta fanni - munajjimlik, alkimyo va tabiiy sehrni o'z ichiga oladi, lekin ba'zida fol ochishning turli shakllari ham tabiiy sehrdan alohida ajralib turadi. Diniy tarixchi Vauter Xanegraffning so'zlariga ko'ra, ularning barchasi birlashtirilgan, chunki «ularning har biri tabiat va tabiiy jarayonlarni nazariy asoslar kontekstida tizimli ravishda o'rganish bilan shug'ullanadi. Ular asosan okkultizm g'oyalari yoki kuchlariga ishonishga tayanadi». Turli xil okkultizm fanlari o'zlarining harakatlari va usullari bilan bir-biriga mos keladigan ko'plab bog'liq sohalarga ega bo'lishiga qaramay, ular ba'zan bir-birini formal mantiqiy emas deb rad etadilar<sup>5</sup>.

<sup>2</sup>Qarang: Faivre, Antoine (1994). Access to Western Esotericism.SUNY Series in Western Esoteric Traditions. Albany, NY: StateUniversityofNewYorkPress p. 88

<sup>3</sup>Qarang: Hanegraaff, Wouter (2006). «Occult/Occultism».In WouterHanegraaff (editor).Dictionary of Gnosis and Western Esotericism.Leiden: Brill. pp. 884—889.

<sup>4</sup>Qarang: Pasi, Marco (2006). «Occultism».In Kocku von Stuckrad (editor).The Brill Dictionary of Religion. Leiden: Brill. pp. 1364—1368.p. 1365.

<sup>5</sup>Qarang:Hanegraaff, Wouter (2006). «Occult/Occultism».In WouterHanegraaff (editor).Dictionary of Gnosis and Western Esotericism.Leiden: Brill. pp. 884—889.

O'tkan asirlar moboynida "okkult" atamasi "fan" tushunchasiga to'g'ri kelmaydigan tushuncha sifatida qabul qilindi. Hozirgi zamon ilm fanida «okkultizm» yoki «yashirin fanlar» atamalaridan foydalanish odatiy tuska kirgan. Hattokiy fan falsafasida okkultizm ilm fan sivilizatsiyasining bir bosqichi sifatida olib qarolmoqda. Antropolog Edvard Taylor o'zining 1871yilda chop etilgan "Ibtidoiy madaniyat" kitobida "sehr-jodu" so'zining sinonimi sifatida "okkultologiya" atamasini ishlatadi va ilmiy maqom beradi.